

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

QUYOSHLIQ ISTASANG KASBI KAMOL ET...

Burobiya Rajabova

O‘z FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklor instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi 53-bob tahlil qilingan. Mazkur bob Shog‘arib Mirzoga bag‘ishlangani qayd etilgan. Tahlilda asarning badiiy xususiyatlari, obrazlar olami, o‘ndan ortiq nasihatlar va Navoiy olg‘a surgan o‘lmas g‘oyalarga qaratilgan. Mazkur bob Shog‘arib Mirzoning davlat va mamlakat taqdiriga daxldor shaxs namoyon etadi. Qiyosiy aspektida esa Navoiyning “Majolis un-nafois”, Boburning “Boburnoma”, Faxri Xiraviyning “Ravsat us-salotin” asarlariga murojaat qilingan.

Kalit so‘zlar: doston, bob, nasihat, uslub, tasvir va talqin.

Аннотация: В статье анализируется 53-я глава «Фархада и Ширин» - саги об Алишере Навои. Отмечается, что данная глава посвящена Шогарибу Мирзе. В анализе рассматриваются художественные особенности произведения, мир образов, более десяти указаний и бесценные идеи Навои. В этой главе Шогариб Мирза описывается как человек, служивший на благо государства и страны. К сравнительному аспекту обратились «Маджолис ун-наfois» Навои, «Бабурнома» Бабур и «Раусат ус-салатин» Фахри Хирави.

Ключевые слова: сага, глава, стиль, образ и интерпретация.

ANOTATION: The article analyzes the 53rd chapter of “Farhad and Shirin” - the saga about Alisher Navoi. It is noted that this chapter is dedicated to Shogharib Mirza. The analysis examines the artistic features of the work, the world of images, more than ten instructions and invaluable ideas of Navoi. In this chapter, Shogharib Mirza is described as a person who served for the benefit of the state and country. Navoi’s “Majolis un-nafois”, Babur’s “Baburnoma” and Fakhri Hiravi’s “Rausat us-salatin” turned to the comparative aspect.

Key words: epic, chapter, exhortation, style, image and interpretation

Alisher Navoiy nazmiy va nasriy uslubdagi asarlarida Sohibqiron Amir Temur va temuriylarga alohida fasl va boblar bag‘ishlagan, xabarlar bitgan. Ularda mutafakkir shoir ma’lum bir ma’noda o‘zining boqiy fikrlari, milliy va umumbashariy g‘oyalarni talqin-u tarannum qiladi. Biz maqolada shunday boblardan biriga ijtimoiy fikr va poetik talqin aspektida diqqat qaratdik.

Navoiy “Farhod va Shirin” dostonining LIII (53) bobini Sulton Husayn Boyqaroning o‘g‘li Abulfavoris Shohg‘arib Mirzoga bag‘ishlagan. Bobga u “Saltanat shajarasining samarasi va xilofat bog‘ining shajarasi, hidoyat avjida manzil etgan, tamalluqning nihoyatig‘a yetgan, riyo qasri bunyodin qo‘nqorg‘on, balog‘at ayvonida ot chiqorg‘on, ya’ni sulton zodai olam Abulfavoris Shohg‘arib Bahodir xallada davlatu madhida bir necha so‘z surmak va nasihatimiz nuktalar arzg‘a tegurmak, umid ulkim bu shohvor durlarni tufrog‘din olg‘ay va adosida quloq solg‘ay, balki ul garonmoya gavharlarni quloqqa solg‘ay” [2.460-468], deb navoiona uslubda sarlavha qo‘ygan. Sarlavhada aytilganidek, bob mav‘iza, ditaktik xarakterga ega bo‘lib,

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Navoiyning o‘zi uni “nasihatimiz nuqtalar” deya izohlaydi va Shohg‘arib Mirzoning uning so‘zlariga quloq solishiga umid bildirgan. Demak, bobda bayon qilingan mav‘iza bir shaxs, ya‘ni davlat xizmatchisiga atalgani bois, uni umumga emas, balki yakka shaxsga qaratilgan o‘gitlar turkumiga kiritish mumkin. Albatta, bu tasnif ham nisbiydir. Bobning ayrim o‘rinlarida umum man‘fati ham nazarda tutilgani seziladi. Umuman, Navoiy mazkur bobda Shohg‘arib Mirzoning davlat va mamlakat taqdiriga daxldor shaxs sifatida tasvirlangani ochiqlangan.

Abulfavoris Shohg‘arib Mirzo jismida nuqson bor edi, tarixiy ma‘lumotlarga qarganda, u bukri bo‘lgan. Shuningdek, u G‘aribiy taxallusi bilan o‘zbek, fors tilida she‘rlar bitgan, devon tuzgan, otasi Sulton Husayn Boyqaroga saltanat ishlariga yordam bergan, ya‘ni Sulton safarda bo‘lgan vaqtlarida shaxzoda poytaxt Hirotni, ma‘lum ma‘noda mamlakatni boshqargan. Shohning boshqa o‘g‘illari kabi u maishatga berilmagan, o‘z davrining muhim ilm, fanlarini puxta egallagan, adolatni baland tutgan hamda ilm-u ma‘rifat va hunar ahliga himmat ko‘rsatgan.

Shohg‘arib Mirzo Navoiyning o‘ta qobiliyatli zamondoshlaridan biri hisoblanadi. Mutafakkir shoirning Shohg‘arib Mirzoga umid bog‘lagan va unga ixlosi juda baland bo‘lgan. Buni mazkur bob mazmunidan yoxud “Majolis un-nafois” tazkirasining 7-majlisidan bilish mumkin. Shoir adabiyot, san‘at va madaniyatga homiylik qilgan yoki ijod bilan shug‘ullangan 21 nafar temuriylar qatorida unga maxsus fiqra yozgan.

Bob avvalida Navoiy ramziy ma‘noda Jahon bog‘i va unda o‘svuchi yuz xil gullar rangi, fayzi haqida so‘z ochar ekan, Shohg‘arib Mirzoni go‘yo shu bog‘ning bir guliga qiyoslaydi. Muallif “Bori shohlar fasihi Shohg‘arib ul” deya uni yuksak e‘tirof bilan o‘quvchiga tanishtiradi:

*G‘arib o‘lg‘ay nihoyatdin ziyoda,
Bu yanglig‘ gulkim o‘lg‘ay shahzoda.*

*Qayu shahzoda ul koni malohat,
Takallum vaqti daryoyi fasohat.*

*Fasohat bobida shohg‘a qarib ul,
Bori shohlar fasihi Shohg‘arib ul.*

Navoiy badiiy mahorat bilan temuriy shahzodani Yangi oyga va Quyoshga mengzaydi. Uning kamoloti yo‘lida klassik-oliy, turkona-xalqona uslubda bir turkum nasihatlar aytgan va o‘gitlarini halimlik bilan bayon qilishda daho shoir sifatlash, o‘xshatish, talmeh, faxriya, tazod, husni ta‘lil, tamsil, murojaat, irsoli masal singari

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

lafziy ma’naviy she’riy san’atlardan unumli foydalangan. Shunisi e’tiborga molikki, bob obrazlar olamiga juda boy. Unda Shohg‘arib Mirzoga aytgan nasihatlarini muallif eng uzoq umr ko‘rgan Nuh payg‘ambar, Muhammad s.a.v, Ajam shohlari, shoh Iskandar, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Sulton Husayn Boyqaro kabi tarixiy shaxslar orqali yetkazadi. Bundan tashqari faloniy obrazi sifatida birov, olim, hakimlar, yuz ming xirandmand, din ulomalari, tabib, muarrix, muhaddis, ogohlar, shoh, ogoh shoh, ulus, soqiylarni tilga oladi. Bobning tili sodda, poetikasida esa muallif nutqi ustun, ibtidosidan intihosiga qadar muallif nutqi bilan bayon etiladi. Endi Navoiy mav’izalarini birma-bir talqin qilsak.

Birinchi nasihat Navoiyning qutlug‘ duosi, nek niyatiga yo‘g‘rilgan tarzda ifodalangan. Bayt shohbayt xarakterida bo‘lib, hikmat nafaqat Shohg‘arib Mirzoga, balki ma’lum ma’noda olam ahliga, kelajak avlodga qarata aytilgan, deb baholash mumkin. Bu o‘rinda Navoiy qo‘llagan kasbi kamol et tamoyilini qit’alaridan birida ham badiiy talqin qiladi. Ibrohim Haqqulov tadqiqotlarida [6] ushbu qit’a atroflicha tahlil etilgan. Bobda shu tariqa ifoda qilinadi:

*Quyoshliq istasang kasbi kamol et,
Kamol ar kasb etarsen, bemalol et.*

Ikkinchi nasihatda esa Navoiy o‘z vaqtida ta’lim, tarbiyaga g‘ayrat va rag‘bat ko‘rsatmay, balki o‘zining g‘aflati, befarqligi oqibatida insonda paydo bo‘lgan hijolat, hijolat bo‘lish kabi salbiy xislatdan ogohlantirgan. “Nasoyim ul-muhabbat”da vaqtni sarmoya deb bilgan Navoiy vaqt qadri haqida ham eslatgandek bo‘lgan:

*Kishi ta’limdin topsa malolat,
Topar ilm ahli ollinda xijolat.*

Uchinchi nasihatini u hadis asosida bayon qilgan, go‘yo Rumiyning “Hushyorlarga bering dunyoni” degan hikmati ma’nosini anglagan shaxs, ya’ni hayotda ogoh inson, ogoh shoh bo‘lishga chaqirgan:

*Birovkim qilsa olimlarga ta’zim,
Qilur go’yoki payg‘ambarga ta’zim.*

*Hadis o‘lmish nabiyydin bo‘yla hodis
Ki, olim keldi payg‘ambarga voris.*

*Erursen shoh – agar ogohsen sen,
Agar ogohsen sen – shohsen sen.*

To‘rtinchi nasihatida Navoiy shahzodani ilmi bo‘lishga chaqirar ekan, ochiq va yashirin talmeh san’ati vositasida Arastu, Suqrot, Fishog‘urs, Luqmon kabi hakimlar

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

maslahati bilan Kengash asosida davlat boshqargan shoh Iskandarni yodga oladi. Uning Quyoshning chiqishidan to Quyoshning botishigacha bo‘lgan hududlarni, ya’ni “bahru barni” egallaganiga ishora qilgan:

*Sikandar torti chun ilmu hunarni,
Ne yanglig‘ oldi ko‘rgil bahru barni.*

*Aningdek saltanat ahli ko‘p erdi,
Qayu birga bu nav‘ ish dast berdi.*

*Iki ming yil o‘tub yuz ming xiradmand,
Bo‘lub hikmatlari birla barumand.*

Navoiy Shohg‘arib Mirzoni ilm o‘rganishga da’vat qilar ekan, ochiq talmeh vositasi bilan Temurxonning suyuqli nabirasi Mirzo Ulug‘bekni eslaydi, uning ilmi oldida “osmon pastligi”, Rasadxonasi “zebi jahon”, “yana bir osmon” ekanini to‘lqinlanib yozadi. Bilim hukmdorlarga ziynat ekanini kuyinchaklik bilan gapirgan. Tasvir va tasavvur aniq bo‘lishi uchun Ulug‘bek ilmiy faoliyati yortilgan lavhani to‘liqroq berishga harakat qildik. Chunonchi:

*Temurxon naslidin sulton Ulug‘bek
Ki, olam ko‘rmadi sulton aningdek.*

*Aning abnoyi jinsi bo‘ldi barbod
Ki, davr ahli biridin aylamas yod.*

*Valek ul ilm sori torti chun dast,
Ko‘zi ollinda bo‘ldi osmon rast.*

*Rasadkim bog‘lamish - zebi jahondur,
Jahon ichra yana bir osmondur.*

*Bilib bu nav‘ ilmi osmoniy
Ki, andin yozdi “Ziji Ko‘ragoniy”.*

*Qiyomatg‘a degincha ahli ayyom,
Yozorlar oning ahkomidin ahkom.*

Bilik garchi ko‘runur ko‘zga ziynat,

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Vale shahlarg‘a bordur o‘zga ziynat.

Beshinchi nasihatida Navoiy Shohg‘arib Mirzoga o‘z davrining ilg‘or, taraqqiyparvar kishilari kabi diniy va dunyoviy ilmlarni puxta egallashi zarurligini tushuntirgan. Jam‘ va taqsim san‘ati vositasida fiqh, hadis, tafsir ilmini bir misrada yoki tib va hikmat ilmini birga qo‘llagan:

*Bu din ilmiki xomam qildi tahrir,
Erur fiqhu hadisu so‘ngra tafsir.*

*Chu takmil o‘ldi bu uch ilm sen bil,
Yana har ilm maylin qilma, yo qil.*

Tib va hikmat ilmi inson salomatligi, sog‘lom turmush tarzi, hatto Alloh amrlarini to‘kis bajarish uchun ham zarurligi uqtiriladi. Navoiy go‘yo sog‘lom fikr, sog‘lom aql, sog‘lom ruh, sog‘lom jism tamoyilini bayon qilgandek bo‘ladi:

*Va lekin tibbu hikmat ham erur xo‘b
Ki, sihatdur kishi jismida matlub.*

*Qayu jismeki oning sihhati yo‘q,
Qilurg‘a Tengri amrin quvvati yo‘q.*

Navoiy bobda ham ijodkor, ham davlat arbobi sifatida siyosiy hushyorlik va o‘tmishdan, xususan, tarixda o‘tgan hukmdorlar faoliyatidan ibrat olish uchun hukmdorlar tarix fanini o‘rganishi zarurligi xususida ham yozgan hamda tarix varaqlarida yaxshi yoki yomon nom qoldirgan Ajam shohlaridan Tahmuras, Jamshid, Zakhoklar nomini qiyosiy aspektda tilga olgan:

*Ravon tarix sori rag‘bat ayla,
Salotin birla azmi suhbat ayla.*

*Jahondin ko‘rki kimlar kom olibdur,
Bu eski dayr kimlardin qolibdur.*

Shuningdek, Navoiyning bobda aytgan boqiy fikrlaridan biri, insonning mazmunli va ibratli umri xususida bo‘lib, insondan yaxshi ot, yaxshi nom qolishi, uning ikkinchi umri ekanini eslatishidir:

*Qayu fankim shuru‘ etmaklik onda,
Kishidin yaxshi ot qolg‘ay jahonda.
Qila olg‘oncha ul bo‘lsun shioring
Ki, yaxshi ot qolg‘ay yodgoring.
Emas hojat ne qil deb kimsadin pand*

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Ki, ham olimsen ul dam ham xiradmand.

Navoiy olg‘a surgan yaxshi ot, ezgu nom konsepsiyasiga adib Oybek ham “Navoiy” romanida diqqat qaratgan. Romanda Navoiyning Unsiya nomi bilan mashhur rezedensiyasida ukasi Darvesh Ali bilan yaxshi ot, ezgu nom haqida suhbat qurgani va ukasiga nasihatlar aytgani yuksak pafos bilan badiiy talqin qilinadi.

Shohg‘arib Mirzoni Navoiy Haq amriga amal qilishga undagan. Unga Nuh umrini tilagan hamda bildirgan nek niyatiga dalil qilib tamsil badiiy san‘ati vositasida ahli hikmat tilidan “Yomondin oz behkim, yaxshidin ko‘p” degan hikmat bilan quyidagi baytni yozgan:

*Bu so‘zni ahli hikmat deb durur xo‘b,
“Yomondin oz behkim, yaxshidin ko‘p”.*

Yana Navoiy unga ham faqih, ham tabib, ham muarrix, ham hakim, ham davlat arbobi tilidan ta’sirli nasihatlar bitgan va “olam ichra yaxshi ot” ezgu nom konsepsiyasini olg‘a surgan. Ayrimlariga murojaat qilsak:

*Ne ishdin mamlakat obod bo‘ldi,
Qayu ishdin ulus barbod bo‘ldi.*

*Ne ish har shohning bo‘ldi sifoti
Ki, qoldi olam ichra yaxshi oti.*

Navoiy faxriya usuli bilan unga otasi Sulton Husayn Boyqaroning din va dunyo ilmida ma’no topganini, ustunligini eslatar ekan, e’tirof bilan uning hukmronligi davrida Xuroson davlatida badiiy adabiyot, ilm-fan, san‘at va iqtisodiy hayotning ko‘plab sohalari taraqqiy etganiga ishora qilgan. Navoiy Shohg‘arib Mirzodan kamtarlik va umid tuyg‘usi bilan o‘zini ham duoda yod va fotihada shod qilishini so‘ragan. O‘qiymiz:

*Yetursa naf‘i kulliy har bir irshod,
Mening ruhum duodin qilg‘asen shod.*

*Sanga bu pand har dam naf‘ bergay,
Duo qilsang manga ham naf‘ bergay.*

Ming afsuslar bo‘lsinki, Shohg‘arib Mirzo mutafakkir shoir Alisher Navoiydan avvalroq, olamdan bevaqt o‘tgan. O‘zbekiston Qahramoni S.G‘aniyevaning yozishicha, Navoiy Shoh G‘arib Mirzo vafotiga har bandi 6 baytdan iborat 5 bandli (60 misra) tarkibband marsiya yozgan. Unda marhumning kamtar va shirinso‘z inson, adolatli va lutf-marhamatli shahzoda, zakovatli shoir bo‘lgani qayd etiladi. Bu marsiya

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

birinchi marta 1971-yilda (Adabiy meros, 2) atoqli matnshunos H.Sulaymonov tomonidan nashr etilgan [1.276].

Navoiy murojaat san’ati yordamida “Qadimiy qullug‘um haqqini yod et!” va “Ishim chun pand bermaktur payopay” deya coqiyga murojaat qiladi hamda bobga yakun yasaydi. Ko‘rinadiki, Navoiy bobda ijobiy bo‘yoqdor so‘z, iboralar qo‘llangan, ba’zi so‘z, iboralarning ma’no qatlami, lingvo poetikasi sabab muallif fikrlari ta’sirli ifodalangan.

Endi Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasida shahzodaga berilgan ta’rifga e’tibor qilsak. Navoiy uning xislati, o‘tkir zehni, zakiyligi, Ulug‘bek Mirzo kabi ovga va qushlar olamiga qiziqishi borligi, devoni va u haqida yana bir kitob yozish mumkinligi haqida gapirgan. Lirkasidan matla’ shaklida bir turkum misollar keltiradi, shuningdek, ularni tasnif ham qiladi. Chunonchi: “Shoh G‘arib Mirzo – sho‘x tab‘lig‘ va mutasarrif zehnik va nozuk taxayyulluq va daqiq taaqqulluq yigitdur. Nazm va nasrda naziri ma’dum va mutaxayyila va hofizada adili noma’lum. Ov va qush xotirig‘a marg‘ub va qurro va o‘qush ko‘ngliga mahbub.

Bu matla’ aningdurkim:

*Qaysi bir gulchehra ul gulbargi xandonimcha bor,
Qaysi bir shamshod qad sarvi xiromonimcha bor?*

Bu matla’ ham yaxshi voqe’ bo‘lubturkim:

*Tarki mehr aylab agarchi bo‘ldi jonon o‘zgacha,
To tirikman, qilmag‘umdur ahdi paymon o‘zgacha.*

Bu matla’ xos xayol va g‘arib ado topibdurkim:

*Porso yoring‘a may ichmak shior o‘lmish yana,
Baski tortarman sabu, egnim figor o‘lmish yana.*

Bu forsiy matla’ ham bag‘oyat oshiqona tushubturkim:

*Bozam baloi jon g‘ami on mohpora shud,
Ey voy, on marizki dardash du bora shud.*

Bu matla’ ham bag‘oyat oshiqona va muxlisona va muassirona voqe’ bo‘lubturkim:

*Do‘ston, har gah guzar so‘i mazori man kuned,
Joi takbiram duoi joni yori man kuned.*

(Tarjimasi: Do‘stlar, goho mozorim tomon kelib turing; Menga fotixa o‘qish o‘rniga yorimning duoi jonini qiling.)

Devon ham jam’ qilibdur. Yaxshi matla’lari bu muxtasarg‘a sig‘mas, magar yana bir kitob bitilgay” [1.170].

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Bobur “Boburnoma” memuarida Sulton Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan zikrning “Avlodi” faslida uning o‘n to‘rt o‘g‘li, o‘n bir qizi borligini gapirar ekan, dastlab, Badi‘uzzamon Mirzo nomini keyin esa Shohg‘arib Mirzo ismi tilga olgan. Muallif uning fazilati, ikki tilda ijod qilishi, devon tuzgani, taxallusi xususida to‘xtalgan va yuqori baho bergan, bundan tashqari fors tilida bitgan bir baytini ilova qilgan. Davlat boshqaruvidagi ishtiroki, ya‘ni Sulton Husayn Boyqaro Hirotdan biror yoqqa otlansa, hukmronlikni Shohg‘arib Mirzoga qoldirishi, otasi tirikligida bevaqt vafoti qilgani to‘g‘risida ham muhim xabar bitgan. Chunonchi: “ Yana Shohg‘arib Mirzo edi, bukri edi. Agarchi hay‘ati (shakli, ko‘rinishi [8.761]) yomon edi, tab‘i xo‘b edi. Agarchi badani notavon edi, kalomi marg‘ub edi. “G‘aribiy” taxallus qilur edi, devon ham tartib qilib edi, turkiy va forsiy she‘r aytur edi. Bayt anigdurkim:

*Dar guzar didam pari ro‘ye shudam devonavash,
Chist nomi o‘, kujo boshad nadonam xonash*

(Tarjimasi: Guzarda bir pari yuzni ko‘rib, devona bo‘ldim, uning ismi nima, uyi qayerda ekanini bilmadim.) Necha mahal Hiri hukumatini Sulton Husayn Mirzo Shohg‘arib Mirzoga berib edi. Otasining zamonida o‘q naql qildi”. [4.129] Boburning mazkur qimmatli ma‘lumoti “Bobur ensiklopediyasi”da aks etgan, ya‘ni O.Jo‘raboyev tomonidan qisqa so‘z-maqola sifatida keltirilgan [3.525].

Faxriy Hirotiy ham o‘zining “Ravzat us-salotin” tazkirasining “She‘rga mayl ko‘rsatgan va she‘r aytgan Samarqand va Xurosonning Amir Temur Ko‘ragon avlodidan bo‘lgan sultonlari zikrida” nomli uchinchi bobida unga atab fiqra bitgan. Navoiy “Majolis un-nafois”da, Bobur “Boburnoma”da yozgan ma‘lumotlardan farqi, birinchidan, Faxri Xiraviy Shohg‘arib Mirzoning besh baytli “yana” radifli g‘azalining to‘liq matnini keltiradi. Ikkinchidan, uning devoni xalq orasida mashhur ekaniga diqqat qaratadi. “Ravzat us-salotin”da quyidagilarni o‘qiymiz: “Sulton Husayn Mirzoning farzandi edi. Shoirlik va xushta‘blikda mashhur bo‘lgan. Turkiy va forsiy nazmni yaxshi aytar edi. Xalq o‘rtasida uning she‘riy devoni mashhurdir. Turkiyda uning mana bu g‘azali mashhurdir:

*Bir qaro ko‘z bag‘ri toshning xoksorimen yana,
Kirsamaydon ichra rashx¹ining g‘uborimen yana.
Yig‘ladim chandonki, seli har sori bo‘ldi ayon,
Gulruhimi hajrida abri navbahormen yana.
Oshiq o‘ldim, zuhd ahlidin uzdik-la ko‘ngil,
Men kimu ul xayl kim, ishq ahli sorimen yana,
Nol²dek qad birla sensiz nola qilmoqdur ishim,*

¹ Раших – олачиפור, чиройли от.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Noladin bazmi g‘amingda chang torimen yana.

Ey G‘aribiy, oqsa bag‘rim qoni ko‘zdin ne ajab,

Bir qaro ko‘z bag‘ri toshning xoksorimen yana.

Uning mana bu forsiy matla’si ham mashhurdir. Matla’:

Do‘ston, har gah guzar so‘i mazori man kuned,

Joi takbiram duoi joni yori man kuned”. [5.61]

(Ya’ni

Do‘stlar, qachon mening mozorim tomonga o‘tsangiz,

Meni eslash o‘rniga yorimning joniga duo qiling.)

Uning she’riy devoni Germaniyaning Gamburg milliy kutubxonasida saqlanadi, bu haqda O‘zbekiston Qahramoni S.G‘aniyeva o‘z tadqiqotlarida to‘xtalib o‘tadi. Adabiyotshunos S.Halimov “Shohg‘arib Mirzo G‘aribiy “Devon”ining temuriylar davri adabiy muhitida tutgan o‘rni” mavzusida [7.21] dissertatsiya yozgan. Mazkur tadqiqotda olim ushbu devon tarkibi, janr xususiyatlari, obrazlar olami, badiiy mahoratini, Hirot madaniy muhitida tutgan yuksak o‘rnini, Navoyi g‘azallariga bog‘lagan tatabbu’larini o‘rgangan.

Xulosa shuki, Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida Shog‘arib Mirzoga bag‘ishlab bitgan LIII (53) bobida aytilgan nasihatlar bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Chunki, birinchidan, uning pand, nasihatlar davrimiz yoshlarining ilmni puxta egallashida, kasbda kamol topishida qo‘llanma vazifasini o‘taydi. Ikkinchidan, olimlarni el-yurt uchun foydali ilmlar bilan shug‘ullanishga undagan. Uchinchidan esa Bobur va Faxri Xiraviy yozgan ma’lumotlar bizga Shog‘arib Mirzoning ham davlatga, ham badiiy adabiyotga daxldor yetuk shaxs bo‘lganini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Мажолис ун нафоис. МАТ, 13-жилд. -Тошкент: Фан, 1997.170- бет.
2. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 13-жилд. – Тошкент: Фан, 1997. – 276-бет.
3. Алишер Навоий. Фарҳол ва Ширин. МАТ, 8-жилд. -Тошкент: Фан, 1997.460-468- бетлар
4. Бобур энциклопедияси -Тошкент: Шарқ, 2017.525- бет.
5. Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. 129- бет.
6. Фахри Хиротий. Равзат ус-салотин. – Тошкент: “Mumtoz so‘z”, 2014. 61- бет.
7. Ҳаққулов И. Камол эт касбким. – Тошкент: Чўлпон, 1990, 240 б.

² Нол – камиш қалам ичидаги ингичка томир, қилтирик.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

8. Ҳалимов С. “Шоҳғариб Мирзо Ғарибий “Девон”ининг темурийлар даври адабий муҳитида тутган ўрни” мавзусидаги диссертация автореферати. – Самарқанд: 2021. 21 б..
9. Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Фан, 1972. – 761-бет.